

**N. MAHMUDOV, A. NURMONOV, A. SOBIROV,
V. QODIROV, Z. JO‘RABOYEVA, G. ZIYODULLAYEVA**

ONA TILI

5-SINF

O‘QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO‘LLANMA

**«TAFAKKUR» nashriyoti
TOSHKENT-2011**

UDK: 811.512.133(072)

74.268.1

O-58

Ona tili: 5-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma/N.Mahmudov (va boshq.). – T.: Tafakkur, 2011. – 208 b.

I. Mahmudov, N.(va boshq.)

UDK: 811.512.133(072)

BBK 74.268.1

ISBN: 978-9943-24-000-1

© N. MAHMUDOV 2011-yil.
© «TAFAKKUR» nashriyoti 2011-yil.

SO‘ZBOSHI

Jahon andozalariga mos dastur va darsliklar yaratish, yoshlarimizni yuksak ma’naviyatli, chuqur bilimli, vatanparvar, keng mushohadali, buyuk davlatni barpo etish yo‘lida ijodkor va faol qilib tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridandir.

O‘z fikrini ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan o‘quvchini zamon talabi darajasidagi o‘quvchi deb bo‘lmaydi. Umumiy o‘rta ta’limda bu vazifani bajarish, asosan, ona tili ta’limi zimmasiga yuklatiladi.

Ayniqsa, ona tili haqidagi bilim va ko‘nikmalarni o‘quvchilar ongiga singdirishda 5-sinf materiallari muhim o‘rin tutadi.

Darslik va «O‘qituvchi kitobi»ni yozishda o‘rta umumiy ta’limda amalda bo‘lgan ona tili dasturida berilgan ta’lim mazmuni va shakli e’tiborga olindi, ta’limning uzviyligi ta’minlandi.

5-sinf «Ona tili» darsligi va «O‘qituvchi kitobi»da o‘quvchini passiv tinglovchi emas, balki darsning faol ishtirokchisi, o‘qituvchini esa o‘quvchining faoliyatini boshqaruvchi subyektga aylantirishga jiddiy e’tibor qaratildi.

E’tiborli manbalarda bolalarga erkin fikrlash o‘rgatilmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishining muqarrarligi, mustaqil fikrlash ham katta boylik ekanligi ko‘p bor ta’kidlangan.

Shuni hisobga olgan holda darslikda o‘quvchining erkin fikrini o‘stirishga alohida e’tibor berildi.

5-sinfda o‘quvchilar ona tili ta’limining asosiy kursi bilan tanisha boshlashlari, o‘zbek tilining nazariy va amaliy ko‘nikmalaridan yetarlicha ma’lumotlar olishlari e’tiborga olinib, induktiv asosda nazariy bilimlarni o‘zlashtirish tavsiya etildi.

Milliy va xorij tajribasidan kelib chiqib, darslikda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini o‘stirishga katta o‘rin ajratildi, unda til va tafakkur uzviyligiga amal qilindi. Sababi fikr qanchalik tiniq bo‘lsa, nutq shunchalik ravon bo‘ladi. Grammatika grammatika uchun emas, grammatika amaliyot uchun tamoyiliga asoslanildi. O‘lkashunoslik materiallari, testlar, rasmlar, illustratsiyalar, har xil matniy vaziyatlar, krossvordlar, muhokamali topshiriqlar, grammatik o‘yinlar, lingvosayohatlardan foydalanildi. Audio-video, komputer texnikasidan har bir

darsda imkoniyat darajasida foydalaniladi. O‘qituvchi darsning yagona «xo‘jayini» emas, uning mexanizmini harakatga keltiruvchi muloqot markaziga aylanishi uchun zamin hozirlandi. Shu ma’nodagi 5-sinf darsligidagi har bir dars tubandagi tizim asosida qurildi.

1. Darslikda amaliyot va nazariyaning uzviy aloqadorligi hisobga olinib, amaldagi tajribalar asosida dastavval mavzuga tegishli topshiriqlar berildi.

Ularning soni 1-3 tani tashkil qiladi. So‘ngra sodda va tushunarli tarzda suhbat, munozara shaklida yangi mavzular bayon etildi.

2. 5-sinfda o‘tilishi lozim bo‘lgan 204 soatlik darsning har biri alohida dars sifatida ajratilib chiqildi.

O‘quvchilarning ongida bilim va ko‘nikmalarini to‘g‘ri hosil qilish maqsadida darslar takrorlash, mustahkamlash, testlar ustida ishlash darslariga bo‘lindi.

3. Har bir bo‘lim bo‘yicha yakunlovchi savol va topshiriqlar mustahkamlash darslariga singdirib yuborildi.

4. Har bir darsning maqsadi uch yo‘nalish bo‘yicha ko‘rsatib o‘tildi: a) ilmiy maqsad; b) tarbiyaviy maqsad; c) rivojlantiruvchi maqsad. Darsning maqsadi, rejasi, jihozi haqida ham kerakli tavsiyalar berildi.

5. Mavzular bo‘yicha ajratilgan mashqlarda xalqimizning milliy qadriyatlariga, Vatan mafkurasining targ‘ibotiga, o‘quvchilarda chinakam insoniy fazilatlarini shakllantirishga alohida urg‘u berildi.

6. Iqtidorli talabalar uchun yulduzcha bilan mashqlar ajratildi, ammo bunday mashqlardan sinfdagi uni ishlashga xohishi bo‘lgan barcha bolalar foydalana olishlari mumkinligi ham e‘tiborga olindi.

Shuningdek, o‘zlashtirishi past o‘quvchilar uchun ham alohida mashqlar berildi; tajriba uchun mashqlar tanlandi.

7.204 soatlik darsning 33 soati yozma nutqni rivojlantirishga bag‘ishlandi. «O‘qituvchi kitobi»da yozma ishlarning matnlari ham berildi, biroq ulardan ijodiy ravishda foydalanish, matnlarni almashtirish, yangi matnlar tuzish o‘qituvchining zimmasida qoldirildi.

8. Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asaridan matnlar amaliy mashqlar uchun tanlandi, mashqlar mazmuniga singdirildi.

9. Yuqoridagi matn va nazariy materiallar asosida o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘qituvchi kommunikatsiyasi amalga oshiriladi.

Bunda savol-javob, bahs-munozara va hokazo usullardan foydalanish kerakligi hisobga olingan.

10. Darsning eng muhim qismini, kulminatsiyasini mana shu komponent tashkil qiladi. Bahs, munozara, tortishuv asosida o'quvchilar o'z fikrlarini bayon etadilar, rasmlar, madaniy yodgorliklarning tasviri kabi turli xil yo'nalishlardagi materiallar yordamida fikr almashadilar. Bayon etgan nazariy asosni mustahkamlaydilar.

11. Xalqimizning sara asarlaridan namunalar o'qib eshittiriladi. Shular ta'sirida o'quvchida o'zbek tili, san'ati va madaniyatining buyuk ta'sir kuchini sezish, his qilish tuyg'ulari uyg'otiladi, topshiriqlar beriladi.

12. Ariza, ma'lumotnoma, maktub, diktant, bayonga reja tuzish, material to'plash, qoralama nusxani tayyorlash va uni oqqa ko'chirish, daftar tutish, ish yuritish ko'nikmalari qo'shimcha mashg'ulotlarda o'rgatiladi. Bunda o'quvchilarning yozma nutqini o'stirishga alohida diqqat-e'tibor qilinadi. Shuningdek, yozma nutqni o'stirish uchun insho mavzulari kiritildi.

13. Yuqoridagilar asosida kichik hajmdagi matnlar, turli xil ish qog'ozlaridan namunalar yozishga, testlar ustida ishlashga vaqt ajratiladi. Shu maqsadda xilma-xil grammatik o'yinlardan, rebus va krossvordlardan foydalanish lozimligi darslikda o'z aksini topgan.

Ta'kidlash joizki, ta'lim jarayoniga o'qitishning zamonaviy texnologiyalari keng qamrovda joriy etilib, ayni paytda mazkur yo'nalishda muayyan tajriba ham to'plandi.

Ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni qo'llashda darsning texnologik xaritasini tuzib olish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan fanning xususiyatidan, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Shu ma'noda, "O'qituvchi kitobi"da berilayotgan ayrim dars ishlanmalarida texnologik xarita namunalari keltirildi. O'qituvchi ushbu namunaga ijodiy yondashgan holda mavjud imkoniyatdan kelib chiqib, boshqa darslarning texnologik xaritasini tuzishi mumkin.

Ma'lumki, amaldagi Davlat ta'lim standartlari sharhlari va o'quv dasturlarini umumiylikka keltirish, mavzulardagi asossiz ravishda takrorlanishlarni bartaraf etish, ta'lim bosqichlari o'quv dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash, o'quv yuklamalarini o'quvchilarning yosh hamda psixofiziologik xususiyatlariga moslashtirish maqsadida umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari tahlil

qilinib, o‘quvchilarning ta’lim bosqichlarida egallashlari lozim bo‘lgan bilimlari hajmi optimallashtirildi. Ushbu jarayonda 5-sinfda 4 soatlik 4 ta mavzu, ya’ni “Ko‘chirma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi”, Urg‘u va uning turlari”, “Ma’nodosh so‘zlarda umumiy va xususiy ma’nolar”, “Iboralar” murakkab deb topilib, bu mavzularga takrorlash uchun ajratilgan soatlardan bir soatdan qo‘shib berildi.

2011- yilda qayta nashr qilingan 5-sinf “Ona tili” darsligida optimallashtirilgan mavzular inobatga olinib, “Muallif gapi ko‘chirma gaplardan oldin va boshqa o‘rinlarda kelganda tinish belgilarining ishlatilishi”, “Gap urg‘usi”, “Ma’nodosh so‘zlar qatorida bosh so‘z”, “Iboralarning qo‘shma so‘z va so‘z birikmalaridan farqi” mavzulari ostida materiallar berildi. Qo‘llanmada yuqoridagi yangi kiritilgan mavzular bo‘yicha ham dars ishlanmalari taqdim etildi.

Xulosa qilib aytganda, 5-sinf «Ona tili» darsligida o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqlarini o‘stirishga, ularning leksik zaxirasini ko‘paytirishga va amaliyotda faol qo‘llashga harakat qilindi.

Iloji boricha til materiallaridan amaliy foydalanish ko‘nikmasini hosil qilish, talaffuz va imlo me’yorlarini, tilimizdagi bugungi o‘zgarishlarni, til tarixidan zaruriy narsalarni, tinish belgilari, so‘z, so‘z birikmalari, gap qurilishi haqidagi qonun-qoidalarni o‘rgatish masalalari ham o‘zbek adabiy tili ta’limining tub mohiyatini tashkil qiladi.

Dars o‘tishning eng zamonaviy, jahon andozalaridagi usullaridan, noan’anaviy uslublardan maksimal darajada foydalanish, tabiat, ishlab chiqarish korxonalari qo‘ynida mashg‘ulot o‘tish kabi shakllarni yo‘lga qo‘yish lozim.

Zukkolik va tadbirkorlikka, to‘g‘ri so‘z tanlashga, nutqda ma’nodosh, shakldosh va zid ma’noli so‘zlardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish, til uslublarini to‘la o‘zlashtirish asosiy maqsad bo‘lib qolmog‘i darkor. Biz keyingi avlodlarga obod va ozod Vatanni meros qilib qoldirish uchun astoydil bel bog‘laganmiz.

Zero, xalq va Vatan manfaati, ularning istiqboli uchun kurashish shu zaminda yashayotgan har bir inson uchun sharafli vazifa sanaladi.

5- sinfda «Ona tili» fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari

O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi, «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunlari va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ga muvofiq «Ona tili» fanini o‘qitish oldiga butunlay yangi maqsad va vazifalar qo‘yilmoqda.

«Ona tili» fanini o‘qitishning bosh maqsadi yoshlarimizni ijodiy fikrlashga, o‘z fikrini erkin va ta’sirli qilib yozma va og‘zaki shaklda ifodalashga, o‘zbek tili qonun-qoidalarini ongli o‘zlashtirishga o‘rgatish, shuningdek, ularning fikr doirasini kengaytirishga, Vatanimizga, milliy an’analarimizga, boy ma’naviyatimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgandir.

Ana shu bosh maqsaddan kelib chiqqan holda 5-sinfda «Ona tili» fanini o‘qitish oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- o‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish;
- o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda o‘zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiq ravishda to‘g‘ri ifodalash;
- bir ma’noni turli shakllarda bera olish ko‘nikmasini shakllantirish, so‘zlardan o‘rinli foydalana olish;
- orfografiya va punktuatsiya qoidalarini singdirish;
- ish qog‘ozlarini yurita olish ko‘nikmasini berish;
- olamni bilishda ona tilining ahamiyatini singdirish.

Mazkur maqsad va vazifalarni to‘laqonli bajarish uchun o‘qituvchi darslardan tashqari qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tishi, o‘quvchilarga qo‘shimcha vazifalar berishi, iqtidorlilar bilan alohida ishlashi, o‘quvchilarni baholashda ham turli shakllarga murojaat qilishi kerak. Biz hurmatli hamkasblarimizga bu borada ham o‘z tavsiyalarimizni bermoqchimiz.

Qo‘shimcha mashg‘ulotlar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

1. To‘garak shakli. Uning yillik rejasi maktab ma’muriyati tomonidan tasdiqlanib, odatda oyda ikki marta o‘tkaziladi. Ko‘p maktablarda to‘garak mashg‘ulotlari nazariy mavzularga bag‘ishlanadi. Og‘zaki va yozma savodxonlik, nutq o‘stirishga ko‘proq soatlar ajratilishi kerak.

2. «Til bayrami» (21-oktabr), «Savodxonlik kechalari» kabi tadbirlarda ona tiliga hurmat va ehtirom, tilni his etish, og‘zaki va yozma savodxonlikning inson hayotidagi ahamiyatini anglash kabi fazilatlar, ko‘nikmalar shakllantiriladi, rivojlantiriladi. Ularda bir yoki ikki o‘quvchiga ma’ruza tayyorlash, bir nechtalariga sahna ko‘rinishi, ayrimlariga she’r va qo‘shiq, boshqalariga qiziqarli savollar, topshiriqlar, muammoli vaziyatlarni hosil qilishni topshirish mumkin. Mazkur tadbirlar har chorakda bir marta o‘tkaziladi.

3. Yordamchi qo‘shimcha mashg‘ulotlar. Bu mashg‘ulotlar sinf o‘quvchilarining barchasi yoki ayrimlari ma’lum bir mavzularni o‘zlashtirishga qiynalib qolishganda o‘tkaziladi. O‘qituvchi o‘ziga

qulay kunda o‘quvchilarni darsdan keyin olib qolib shug‘ullanadi. Haftaning bir kunini mana shunday mashg‘ulotlar uchun belgilab qo‘yilsa ham bo‘ladi.

4. Tilshunos olimlar bilan uchrashuv yoki tavallud sanalari munosabati bilan tadbirlar o‘tkazish. Bu tadbirni ham qo‘shimcha mashg‘ulotlarga qo‘shdik, sababi - ularga o‘qituvchining o‘zi ham, o‘quvchilar ham tayyorlanishlari lozim. Darsda, to‘garakda, boshqa mashg‘ulotlarda bu olimlar faoliyatini, qilgan ishlari ahamiyatini o‘rganishlari, idrok etishlari zarur. Yilda bir-ikki (yoki undan ortiq) marta o‘tkaziladi.

5. Ona tili bo‘yicha «Zukkolar bellashuvi». Bir sinf ikki guruhga bo‘linib yoki qo‘shni sinf bilan ma’lum shartlar bo‘yicha bellashiladi.

Qo‘shimcha mashg‘ulotlar uchun yana bulardan boshqa shakllarni tanlash va ijod qilish o‘qituvchining ixtiyorida.

O‘quvchilarga beriladigan qo‘shimcha topshiriq va vazifalar:

1. Qoidalar daftarini yurgizish. O‘quvchilar darslikda uchragan nazariy qoidalarni maxsus tutilgan daftarga ko‘chirib yodlaydilar, doimo takrorlab boradilar.

2. Axborot berish daqiqalariga tayyorlanish. O‘quvchilar vaqtli matbuotni kuzatgan holda mamlakatimiz va dunyoda yuz bergan muhim yangilik to‘g‘risida ikki-uch kishidan bo‘lib axborot berishga tayyorgarlik ko‘rib keladilar. Bunda iqtidorli o‘quvchilar imkoniyatidan unumli foydalanish hamda hech qaysi o‘quvchi bu vazifadan chetda qolmasligini ta’minlash kerak. Chunki bu topshiriq nutq o‘stirishda, bolalarning ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

3. Shaxsiy test bankini yaratish. O‘quv yili boshida faqat iqtidorli o‘quvchilarga berilgan bu topshiriq birinchi chorakdan so‘ng barchaga birdek yuklatiladi. Har bir o‘quvchi o‘tilgan mavzuga uch-to‘rttadan test tuzadi. O‘qituvchi tahriridan so‘ng o‘quvchilar ularni alohida kartochkalarga yozib boradilar. O‘rni bilan o‘qituvchi bu testlardan mashg‘ulotlarda foydalanishi mumkin.

4. Ma’ruza matnini tuzish. O‘quvchi bir o‘quv yilida kamida bir marta takrorlash, mustahkamlash darslarida yoki sinf, maktab miqyosidagi tadbirlarda o‘qituvchi bergan mavzu bo‘yicha ma’ruza bilan qatnashishi lozim. Ma’ruza matnini tuzishda unga o‘qituvchi hamda iqtidorli, faol sinfdoshlaridan biri yordam beradi.

5. Takrorlash, mustahkamlash darslari uchun sxemalar (iqtidorli o‘quvchilar uchun), grammatik topshiriqlar tuzish, til bo‘yicha

o‘tkaziladigan bayram va kechalarga qatnashish, o‘qituvchi hamda sinfdoshlariga ularni o‘tkazish uchun materiallar topishga yordam berish va boshqalar.

Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash:

1. Darslikda maxsus * belgi bilan iqtidorli o‘quvchilarga deyarli har bir darsda mashqlar berilgan. Mazkur mashqlar berilayotganda, ular iqtidorlilar uchun ekanligiga ko‘p ham urg‘u beravermaslik kerak. Bu ularning o‘ziga, sinfdoshlariga ham, ular orasidagi munosabatga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tajriba-sinov maqsadida bu mashqlarni boshqa o‘quvchilarga ham berib borish kerak.

2. O‘qituvchi oldin qaysi o‘quvchi qanday qobiliyatga ega ekanligini aniqlab olishi zarur. Kimdir suxandonlikka qiziqadi va shunga yarasha qobiliyati bo‘ladi, kimdir so‘zga chechan - askiyalar aytadi, qaysidir o‘quvchi keng va chuqur mushohada kuchiga ega. Darslikdagi mashqlarni berayotganda yoki qo‘shimcha topshiriq, vazifalar yuklayotganda, ularning bu xususiyatini hisobga olish lozim.

3. Sinf o‘quvchilari uchun yangilik bo‘lgan, oldin hech qilib ko‘rmagan qo‘shimcha topshiriq va vazifalarni iqtidorli o‘quvchilarga suyangan holda bajartirish kerak. Boshqa o‘quvchilarda «buni men ham qila olaman», degan ishonch va intilish paydo bo‘ladi. Iqtidorlilarni ulgurmovchi o‘quvchilarga biriktirib qo‘yishda ularning ruhiy-sajiyaviy (xarakter) muvofiqligiga e’tibor qaratiladi, lekin bu biriktiruv muntazam bo‘lmasligi kerak, toki past o‘zlashtiradigan bola doimo birovning ko‘magi va yetoviga o‘rganib qolmasin.

4. Qo‘shimcha mashg‘ulotlar faqat past o‘zlashtiradiganlargagina emas, iqtidorli o‘quvchilar uchun ham tashkil qilinishi kerak. O‘qituvchi aniq yo‘naltirilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, reja asosida mashg‘ulotlarni olib boradi. Bu maktab yoki sinflar miqyosidagi iqtidorli o‘quvchilar klubi kabi shaklda bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilar bilimi va javoblarini baholash.

Dars davomida o‘quvchilarga individual, differensial yondashilar ekan, ularning bilimlarini baholash ham shundan kelib chiqadi. Shuning uchun ham bolaning iqtidoridan kelib chiqib topshiriq berish g‘oyat muhim. Bir xil saviyadagi javobga o‘quvchilar turlicha baholanishi mumkin. Iqtidorli o‘quvchi bilan «o‘rta», shuningdek, ulgurmovchi o‘quvchiga talab va mezon, baholash turlicha bo‘ladi. Yo‘qsa,

bolalarning intilishi susayadi, iqtidorlilar o‘z ustida ishlamay qo‘yadi. O‘qituvchi butun sinfga bitta mashqni bajartirganda ham, qaysi o‘quvchidan nimani so‘rash kerakligini o‘ylab ko‘rishi lozim.

Darsda o‘quvchini doimo o‘qituvchi baholashi shart emas. Us-tozining og‘zaki sharhi, izohi asosida bajargan ishini o‘quvchining o‘zi tekshirishi va baholashi yoki o‘quvchilar bir-birlarini tekshirib, baholashlarini ham qo‘llab turish kerak. Bu, bir tomondan, o‘quvchilar faolligini oshirib, baholashda rang-baranglikni yuzaga keltirsa, ikkin-chi tomondan, o‘zining yoki sinfdoshining xatosini tuzatgan bola keyin shu xatolarga yo‘l qo‘ymasligi mumkin.

Hurmatli hamkasblarimiz baholashda faqat ball tizimi bilan chek-lanib qolmasliklari kerak. O‘qituvchi nutqida ofarin, barakalla, juda yaxshi, yaxshi, men kutgan javob bo‘ladi, sendan shuni kutgan edim, durust, bugun seni tanimayroq tiribman, yaxshiroq javob kutgan edim kabi so‘z, ibora va gaplar tez-tez qo‘llanib turishi yoki o‘quvchiga mamnuniyat bilan jilmayib qo‘yish, boshini silash, yelkasiga qoqib qo‘yish singari harakatlar ko‘p hollarda «a’lo» yoxud «qoniqarsiz» ba-hodan ko‘ra ta’sirliroq bo‘ladi.

DASTUR(171+33 SOAT)

Kirish (2 soat)

1-dars. Kirish suhbat. Til - ijtimoiy hodisa.

2-dars. O‘zbek tili - davlat tili.

Takrorlash (11 + 2)

3-dars. Ayrim unlilar imlosi.

4-dars. Ayrim undoshlarning yozilishi.

5-dars. Bosh va kichik harflarning qo‘llanishi.

6-dars. Bir tovush bilan farq qiladigan so‘zlar ma’nosi va imlosi.

7-dars. Nazorat diktanti.

8-dars. Ma’nodosh so‘zlar.

9-dars. Shakldosh so‘zlar.

10-dars. Zid ma’noli so‘zlar.

11-dars. Qo‘shma so‘zlar imlosi.

12-dars. Juft so‘zlar imlosi.

13-dars. Darak, so‘roq, buyruq va his-hayajon gaplarda tinish belgilari.

14-dars. Nazorat diktanti.

15-dars. Testlar ustida ishlash.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/1192> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/1192> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/1192>